

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 86 (1147), 2024-yil 4-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZARO KENGASHIB, ANIQ AMALIY QADAMLAR TASHLASAK, KO‘ZLAGAN YUKSAK MARRALARIMIZGA ALBATTA ERISHAMIZ

Ko‘ksaroy qarorgohida 3-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XORIJIY INVESTORLAR KENGASHINING IKKINCHI YALPI MAJLISIDAGI NUTQI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI XORIJIY INVESTORLAR KENGASHI
Toshkent, 2024-yil 3-may



FOREIGN INVESTORS COUNCIL
UNDER THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
Tashkent, May 3, 2024

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raislik qilgan tadbirida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, “Masdar”, “Indorama”, “ACWA Power”, “Air

Products”, “Calik”, “Suez”, “Orascom”, “Cengiz”, “Aksa”, “HP”, “Linde”, “Procter&Gamble”, “Visa”, “CAMCE”, “John Deere”, “Huawei”, “Airbus”, “Orano”, “Sommerzbank”, “Total”,

“PASHA Holding” kabi yetakchi kompaniya va banklar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro moliya

korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi vakillari ishtirok etdi.

► Davomi 2-betda

Hurmatli kengash ishtirokchilari! Hurmatli Reno-Basso xonim! Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbidan qutlayman.

Bugungi yig‘ilishimizda jahonning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari bo‘lgan yaqin hamkorlarimiz va yangi sheriklarimizni ko‘rib turganimdan g‘oyat mamnunman.

Kengash o‘tgan davrda o‘zining samarali faoliyatini yaqqol namoyon etdi. Sizlarning sidqidildan ko‘rsatayotgan ko‘magingiz va alohida e‘tiboringiz natijasida ishlohtlarimizga katta yordam beradigan ishlar amalga oshirilmogda.

Ilgari surayotgan g‘oya va tashabbuslaringiz hayotimizning barcha jabhalarida faol tatbiq etilmogda. Sizlar kecha qatnashgan xalqaro forum esa nihoyatda sermazzun o‘tdi, unda qator muhim takliflar ilgari surildi, juda muhim bo‘lgan ko‘plab kelishuvlarga erishildi.

Fursatdan foydalanib, sizlarga — mamlakatimizning yaqin do‘stlariga Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga qo‘shayotgan

munosib hissangiz uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Barchangizga yaxshi ma‘lum, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida beqarorlik tobora kuchayib, energetika, oziq-ovqat sohalari va ekologik tizimda inqirozlar o‘tkir tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda sizlar bilan bamaslahat, o‘zaro kengashib, aniq amaliy qadamlar tashlasak, ko‘zlagan yuksak marralarimizga albatta erishamiz.

Men kuni kecha o‘z nutqimda Yangi O‘zbekistonning investitsiya siyosati bo‘yicha erishilgan natijalar va kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarga batafsil to‘xtalдим. Bugun esa ko‘proq sizlarni tinglash niyatidaman.

Ayniqsa, hurmatli Reno-Basso xonim, sizning qimmatli fikr-mulohazalaringiz men uchun g‘oyat muhimdir. Anjumanlarimizda bevosita ishtirokingiz va Kengash ishini faol qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz bizni albatta ruhlantiradi hamda ushbu platforma doirasida ochiq, konstruktiv va samarali muloqot olib borishga xizmat qiladi.

► Davomi 2-betda

AQSH, XITOIY, YEVROPA VA MISR YETAKCHI KOMPANIYALARINING MAMLAKATIMIZDAGI BIZNESINI KENGAYTIRISH REJALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-may kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi majlisi doirasida Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm boshchiligidagi delegatsiya, Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari, Yevropaning bir qator yetakchi kompaniyalari rahbarlari va Misrning “Orascom Investment Holding” kompaniyasi raisi Najib Savirisni qabul qildi.



Kerolin Lemm bilan muloqotda O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarida yuqori darajaga erishilgani hamda palata mamlakatlarimiz savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shayotgani ta‘kidlandi.

Uchrashuvda “Air Products”, “CNH Industrial” va “Silverleaf” kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

O‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi barqaror oshmoqda, energetika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati va boshqa

tarmoqlarda loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Kerolin Lemm AQSH ishbilarmon doiralari nomidan davlatimiz rahbariga ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligiga shaxsan e‘tibor qaratayotgani va uni har tomonlama



qo‘llab-quvvatlayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Amerika tadbirkorlarining O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirish, moliyaviy instrument va mexanizmlarni rivojlantirish borasidagi ilg‘or tajribani joriy etish hamda turli tarmoqlar-

da loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq rejalari muhokama qilindi.

Joriy yilda Toshkent shahrida AQSHning peshqadam kompaniya va banklari ishtirokida biznes forumini o‘tkazish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Xitoyning yetakchi “CAMCE” korporatsiyasi raisi Van Bo bilan Toshkent shahrida Olimpiya shaharchasi qurilishi hamda energetika, sanoat va infratuzilma sohalaridagi loyihalar portfelini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

► Davomi 2-betda

IJTIMOY XIZMATLAR KO‘LAMINI OSHIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-may kuni ijtimoiy xizmatlar tizimini yanada takomillashtirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb belgilanib, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, har bir inson uchun teng sharoitlar yaratish kafolatlangan. Shu maqsadda nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatini rag‘batlantirish, tazyiq va zo‘ravonlikka uchraganlarga ijtimoiy xizmatlar

ko‘rsatish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmogda.

Bugungi kunda faqat yagona ta‘sischisi nogironlik birlashmasi bo‘lgan korxonalar mahsulotlari davlat buyurtmasi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilinadi.

Shu bilan birga, yurtimizda ishchilarning 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslar-

dan iborat 669 ta korxonalar hamda 8 ming 300 nafar yakka tartibdagi tadbirkor bor. 1-2-may kunlari poytaxtimizda o‘tkazilgan “Inson uchun” nomli ko‘rgazmada ularning mahsulotlari namoyish etilib, 360 milliard so‘mlik shartnomalar imzolandi.

► Davomi 2-betda

SARMOYADORLAR NEGA O‘ZBEKISTONNI AFZAL BILMOQDA?

YOXUD POYTAXTIMIZ MEZBONLIK QILGAN YANA BIR NUFUZLI XALQARO ANJUMAN AHAMIYATI XUSUSIDA

3



TASHKENT
INTERNATIONAL
INVESTMENT
FORUM

